



OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA ILMIY-TARBIYAVIJ ISHLARNI OLIB BORISHNING AHAMIYATI

Islomova S.P.

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
O'zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi assistenti*

Tayanch so'zlar: ta'lim tizimi, ilmiy-tarbiyaviy ishlar, qadriyatlar, madaniyat, ma'naviyat, omillar, tarbiya

Ключевые слова: система образования, научно-просветительская работа, ценности, культура, духовность, факторы, образование.

Key words: education system, scientific and educational work, values, culture, spirituality, factors, education.

Oliy ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlashda bo'lajak mutaxassislarining o'zi tanlagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha puxta bilim berish asosida kelgusi amaliy faoliyatida o'z funksional vazifalarini mukammal bajarishga tayyorlash yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar jarayonida oliy ma'lumotli mutaxassis shaxsiga va ularning faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida ta'limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda ta'lim mazmunini izchil rivojlantirib borish bilan bir qatorda, bo'lajak mutaxassislarga belgilangan malakaviy talablarni ham shaxs va jamiyat extiyojlariga muvofiq izchil takomillashtirib borishda ilmiy tarbiyaviy ishlarni olib borish zarurati mavjud.

Oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tarbiyaviy tizimida talabalarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajarish jarayonida xalqning tarixi va madaniyatiga bo'lgan xissiyotlar va qadriyatlar, ularni anglash shakllantiriladi, shaxsning o'zi bo'lsa ushbu madaniyatni tashuvchisi va davomchisiga aylanadi.

Talabalarda milliy qadriyatlarga oid tushunchalarni rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqishda biz zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhit va uning ta'lim tizimiga hamda shaxsning shakllanishiga ta'sirini xisobga oldik. Xususan, biz yuksak madaniyatli, keng insonparvar dunyoqarashga ega bo'lgan

shaxsni hamda global etika va ma'suliyatni yaxlit hamda yagona jahonda yangi gumanizmning muhim qoidasi sifatida anglab yetgan yaratuvini shakllantirish bo'lgan XXI asr ta'lim tizimiga talablariga asoslandik. Shuningdek, biz qishloq xo'jaligi oliy ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonining tashqi va ichki omillarini xisobga olishni lozim topdik.

Milliy o'zlikni anglash, milliy-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga imkon yaratuvchi asosiy tashqi omillar sirasi qadriyatlar va jamiyatdagi xukmron mafkura, kichik va katta jamiyatlardagi xayot tarzi hamda jamiyatning madaniyati kiradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, oldingi davrlarda milliy qadriyatlar shakllanish jarayonining va talabalarning psixologik o'ziga xosliklarining aniqlab beruvchi ichki omillarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan, bu esa o'z navbatida tarbiyaviy faoliyatning natijalariga ta'sir ko'rsatgan.

Ichki omillar sifatida har bir individning shaxsiy xayotiy tajribasi, uning qadriyatlarga yo'nalganligi, o'zini o'rab turgan ko'pmillatli muhitga moslashuvi va ijtimoiylashuvi jarayonini aytib o'tishiimiz mumkin Ichki va tashqi omillarning o'zaro munosabati talabalarning o'ziga, o'zining xalq va dunyosiga yo'nalganligi, mentaliteti, qarashlari va qoidalarida namoyon bo'ladi. Ichki va tashqi omillar, talabalarning o'zini anglashida tuslanishlar orqali dastlab shaxsning milliy o'zligini anglashiga olib keluvchi "Men" konsepsiyasiga aylanib boradi.

OTMdagi tarbiya jarayoni o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqotni o'z ichiga olgani tufayli, o'zaro birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirishning turlicha shakllari va uslublarini muhim tarbiyaviy omili sub'ekt-sub'ekt o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri, uning talabalarga nisbatan insoniylik, xayrixohlik va qulaylik darajasi xisoblanadi. OTMlardagi tarbiya jarayoning amaliyligi va natijadorligi yuqoridagi shartlarga bevosita bog'liqdir.

O'qituvchi har doim kadrlar tayyorlashda asos bo'luvchi ma'rifiy va ijtimoiy-psixoloik madaniyatni tashuvchisi bo'lishi lozim. Oliy ta'lim jarayonidagi psixologik qulaylik, ta'lim va ta'limdan tashqari faoliyatdagi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro insoniy munosabatlar talabaning kayfiyatiga, uning OTMdagi insonparvarlikka yo'naltirilgan muhitdan qoniqish xosil qilishiga, o'qituvchiga nisbatan ishonchiga qattiq ta'sir ko'rsatib, tarbiyaviy ta'sirning samarador bo'lishini ta'minlashdi.

Ham auditoriya, ham auditoriyadan tashqari tashkiliy-tarbiyaviy faoliyatni majmuaviy xarakterli bo'lishi oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyat sifatini rivojlantirish va oshirishning maqsadli muhim omili hisoblandi.



Majmuaviy yondashuv tarbiyaning qiyin, ko‘p rejali va ko‘p pog‘onali jarayon sifatidagi xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, unda ijobiy natijaga erishish uchun ijtimoiy sheriklikning qo‘llanish maydonlarini kengaytirish, tarbiyalanuvchi, pedagog, OTM hodimlari va boshqa tegishli boshqaruv organlari, shuningdek jamoat, ijtimoiy-madaniy va boshqa tashkilotlarning o‘zaro kelishilgan birgalikdagi faoliyatining rivojlanishi orqali erishiladi. Faqat shunday o‘zaro hamkorligina samarali faol-manfaatli milliy madaniyatga va uning barcha turdagi ko‘rinishlariga bo‘lgan qadriyatli munosabatni shakllanishiga imkon yaratadi.

Tarbiyaviy konsepsiyaning asoslarini ishlab chiquvchi yetakchi olimlar tarbiya tizimi tushunchasini “Tarbiyaning barcha tashkil etuvchi qismlari (maqsad, sub’ekt, ularning faoliyati, muloqot, munosabat, moddiy baza) ning o‘zaro munosabatlari natijasida yuzaga keluvchi va ta’lim muassasasi, uning xodimlarining xayot tarzi va psixologik muhiti kabi birlashgan xususiyatlarni o‘z ichiga oluvchi yahlit ijtimoiy organizm” deb ta’rif berishgan.

Zamonaviy milliy tarbiyaviy ideal inson – yuqori ma’naviyatli, ijodkor O‘zbekiston fuqarosi bo‘lib, u Vatani taqdirini o‘zining sifatida qabul qiladi, uning ma’naviy va madaniy an’analarga asoslangan kelajagi va buguni uchun mas’uliyatini his qiladi.

O‘z hayotida O‘zbekiston fuqarosi asosiy milliy qadriyatlarga tayanadi, bularga- axloqiy, oilaviy, ijtimoiy-tarixiy, diniy avloddan avlodga o‘tib kelayotgan va davlatni zamonaviy sharoitda rivojlanishini ta’minlayotgan o‘zbek xalqi an’analari.

Ko‘p millat halqimizning milliy qadriyatlari uning ijtimoiy-tarixiy, madaniy, oilaviy an’analari saqlanib kelinmoqda va avloddan avlodga o‘tmoqda. Aynan qadriyatlar ma’naviy-axloqiy rivojlanishining, tarbiya va ijtimoiylashuv asoslari mamlakatning samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 6-son. 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y 18-son, 313-modda; 19-son, 335-modda; 24-son, 490-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 5 iyuldagi № PF-5106 sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini



ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3775-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

6. Abdullaev M., Umarov E., Ochiliev A., Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: Turon-iqbol, 2006. – 96s.

7. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. – T.: Universitet, 2011. – 85 s.

8. Azizxonov A.T., Yefimova L.P. Teoriya i praktika stroitelstva demokraticeskogo obshchestva v Uzbekistane. – Tashkent: tipografiya Natsionalnogo universiteta Uzbekistana im. M.Ulugbeka, 2005. – 372 s.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada milliy o'zlikni anglash, milliy-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga imkon yaratuvchi asosiy tashqi omillar sirasi qadriyatlar va jamiyatdagi hukmron mafkura, kichik va katta jamiyatlardagi xayot tarzi hamda jamiyatning madaniyati yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье основными внешними факторами, обеспечивающими развитие национальной идентичности, национально-культурного мировоззрения, ценностей и господствующей идеологии в обществе, образа жизни в малых и больших обществах, культуры общества, являются выделено.

SUMMARY

In this article, the main external factors ensuring the development of national identity, national-cultural worldview, values and the dominant ideology in society, lifestyle in small and large societies, and culture of society are highlighted.